

## OILA MUQADDAS MASKANDIR

**Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna**

Toshkent shahar Sirg'ali tumani  
Toshkent davlat pedagogika universiteti  
tayanch doktoranti  
„O'zbekiston tarixi“ ixtisosligi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila inson hayotining eng muhim maskani ekanligi, har qanday inson ham o'z oilasida o'zini baxtli his qilishligi to'g'risida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** tarix, o'zbek oilasi, turmush tarzi, muqaddas maskan, nikoh, ishonchi, e'tibor, hurmat, farzandlar tarbiyasi.

Azaldan boy tarixga ega o'zbek oilasida qadimdan o'ziga xos demokratik tartib qoidalar va turmush tarzi shakllangan. Kishilarning kundalik xayoti bilan bog'liq munosabatlari mushtarak manfaatlari hamda majburiyatlar oila va jamiyat taqdiriga daxildor ishlarni birgalikda hal etish uchun asos bo'lgan.

O'zbek oilasining tarixi va turmush tarzi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va rivoj topgan. Uning o'ziga xos tarixiy xususiyatlari o'tmishning uzoq davrlariga borib taqaladi. Shu jihatdan qaraganda azaldan dunyoning barcha xalqlarida bo'lgani singari o'zbeklarda ham oilaga, jamiyatning an'anaviy birlamchi bug'uni, ya'ni jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy uyushmasi sifatida qaraladi.

Mustaqillik yillarida o'zbek oilasi jamiyatining haqiqiy boshlang'ich ijtimoiy bug'ini maqomini oldi va uning bajaradigan vazifalari kengaytirildi, obro' - etibori oshirildi. Bu esa jamiyatda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni yanada takomillashtirishda, tarixiy an'analarni tiklashda muhim rol o'ynamoqda. Bu fuqorolar ongida oilaga, ota onaga, farzandlarga hurmat, izzat, mehribonlik, muvaffaqiyat kabi milliy mentalitetimizga xos ma'naviy axloqiy faziyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda oilaga, unda ayollarning o'rnini oshirishga hamda farzandlar tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratila boshlandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlar"ni qo'llab quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari, to'g'risidagi 2018 yil 2-fevraldagi PF-53-25 sonli Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzurida "Oila" markaziy oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish jamiyatda zamonaviy namunali oila mezonlarini joriy etish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan fundamental, amaliy va inavatsion tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish sohasida respublikaning yetakchi ilmiy tadqiqot ekspert muassasasi hisoblanadi.

Ayni paytda muqaddas maskan sanalgan oila tarixi, etnik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzini, tarixiy an'analari va tajribasini o'rganish mazkur mavzu bo'yicha zarur ilmiy xulosalar chiqarishda muxim o'rin tutadi.

Oila - umr savdosidir. U vijdon qonunlari asosiga quriladi. U o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayaanchlariga ega. Unda odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlarini shakllanadi, bu olamda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar o'z asosini dastavval oiladan oladi. Buning uchun uning poydevori mustahkam, bo'lajak oila quruvchilar oila qurishga tayyor, bir-biriga mos va har tamonlama yetuk bo'lishlari lozim. Bu xususda Rizovuddin ibn Faxruddin "oila quruvchi qiz va yigit xulqu tabiatida bir-biriga muvofiq kelishi kerak" - deganlar. Oila

nikoh asosida shakillanadi. Undan maqsad avvalambor munosib farzandlarni dunyoga keltirish va tarbiyalashdir. U Payg`ambarimizning sunnatlari bo`lib Hadisu sharifda “Nikoh mening sunnatimdir, Kimki mening sunnatimdan voz kechsa u mening ummatim emas”- deydi. Oila mustahkam qo`rg`on ekan, bu qo`rg`onning mustahkamligi oilaning ilk posbonlari kelin-kuyovning oiladagi bir-biriga bo`lgan munosabatlari, ishonchi, e`tibori, hurmati, farzandlar tarbiyasiga befarq qaramasliklari kabi omillariga bog`liq. Farzand oila baxti. Agarda oila farzandli bo`lmasa mustahkam bo`la olmaydi. Har bir ayolning hayotdagi eng baxtli onlari, bu onalik baxtidir. Tug`ilgan chaqalog`ini bag`riga bosishdan boshqa hech narsa onani baxtli qila olmaydi. Farzand onani ham kuchli, ham baxtli qiladi.

Chunki farzand ko`rgan ona yaratganning eng noyob ne`matiga sazovor bo`ladi, shu sababli mutafakirlardan biri “Ayol zaifa” ammo “ona kuchlidir”-deganligi bejiz emas albatta. Bundan ko`rinib turibdiki, avlod qoldirishlik oila mustahkamligini saqlashda ham muhim rol o`ynaydi. Oilaning mustahkamligi nafaqat uning farzandlarni dunyoga keltirish va tarbiyalashda, balki kelin va kuyovning, qaynota va qaynonaning hamda boshqa oila a`zolarining xulqu odobi, o`zaro hurmatida, bir-birini tushunishlarida va iliq munosabatlarida ham aks etadi. Bola tarbiyasida bo`lgan mashaqqatlarning eng mushkuli onalar ustida bo`lib bular hatto shariat hukmiga ko`ra o`zlariga yuklanmagan ko`p xizmatlarini o`z yaxshiliklari bilan bajaradi. Onalar o`zlari och bo`lganligi holda bolasini to`ydirar, uxlashga fursati bo`lmagan holda, bolasini uxlatishga tirishar, bolasining shodligi bilan shodlanar, qayg`usi bilan qayg`urar, bu xizmatlari ustiga yana turmush o`rtog`i, qaynota-qaynonaninig ust boshi, mehmonu xodimlariga bajonidil xizmat qiladi. Bunday mehnatkash, mehribon xotinlarga rahmat aytib ko`ngillarini ko`tarish kerak bo`lgan bir vaqtda, ba`zi erkaklar va qaynota-qaynonalardan tanbeh eshitib ko`ngillari xira bo`ladi. Bunday onalarning umidlari faqat farzandlarida bo`lib ularning kelajagi uchun kuni bilan duoyu mehnat qilishdan charchamaydi.

Xulosa o`rnida aytish kerakki, shodligu-qayg`u kunlarida ota-onalarni unitish emas, balki har vaqt molu - tan bilan yordam bermoq, yiroq yerda bo`lganlarida ziyoratlariga bormoq, maktublar bilan bo`lsada hollaridan xabardor bo`lib turmoq, xayri duolarini olib, ezgu ishlarining savobini ularga bag`ishlamoq lozimdir. Bolalar kelajak bir kunda naqadar buyuk bir zot bo`lsalar ham bu burchlaridan hech vaqt xalos bo`lmaydilar. Bolalar agarda ota-onalariga muhabbat bilan xizmat qilsalar o`z bolalaridan ham mehr muhabbat ko`radilar. Shu bilan oila qo`rg`oni mustahkam bo`la boradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo`llab quvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`ri-sidagi” qarori Xalq so`zi 2020 yil 20 fevral 37-son .
2. Rizoudin ibn Faxruddin Oila Ma`sul muharrir Irisov A.-T. 1991.
3. Bo`riyev O. O`zbek oilasi tarixidan .-T., 1995 .
4. Mahmudov. M. Safarov A. Oila ma`naviyati.- T. 1998

### Internet resurslar:

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.advice.uz](http://www.advice.uz)
3. [www.edu.u](http://www.edu.u)